# XALQ DEPUTATLARI SHAYXONTOHUR TUMAN KENGASHINING
# Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr II-88-207-14-205-K/23 Shayxontohur tuman hokimligi

## 2024-yil uchun Shayxontohur tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari va Byudjet kodeksining 99-moddasiga, 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23 -sonli qaroriga muvofiq, shuningdek, va Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-3/2684-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashi,

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23 -son qarori (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) qabul qilinganligi;

Qarorning 5-ilovasiga muvofiq Shayxontohur tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 139 466 961,0 ming so‘m va xarajatlari 139 466 961,0 ming so‘m miqdorida balanslashgan holda belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun Shayxontohur tuman mahalliy byudjetining daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Shayxontohur tumanining tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

2024-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha Toshkent shahar mahalliy byudjeti bilan tumanlar mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent shahar bo‘yicha G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun Shayxontohur tumanining tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi hajmi 1 194 909,0 ming so‘m miqdorida;

2024-yil uchun Shayxontohur tumani byudjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 548 000,0 ming so‘m etib belgilansin.

5. Qonun bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushadigan tushumlar.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar

mahalliy byudjeti hamda tumanlar mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘grisidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i teng ulushlarda taqsimlash.

6. Quyidagilar Toshkent shahrining shahar byudjetidan, tumanlar tuman byudjetlaridan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahri, tumanlar Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari.

7. Shayxontohur tumani hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b (A.Kuchkarov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Sayriddinov), tuman soliq inspeksiyasi (X.Mulladjanov) va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

8. Shayxontohur tuman soliq inspeksiyasi (X.Mulladjanov), O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan olinadigan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi Shayxontohur tuman bo‘limi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

9. Majburiy ijro byurosi Shayxontohur tuman bo‘limi (A.Zakirov), Shayxontohur tuman soliq inspeksiyasi (X.Mulladjanov), bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

10. Xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan

nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

11. Quyidagilar:

tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlari agentligi, tumanlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

12. Shayxontohur tumani hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman soliq inspeksiyasi, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tegishli bo‘limlar bilan birgalikda:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

13. Shayxontohur tuman hokimligi matbuot xizmati (D.Raximova):

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi ta’minlansin.

14. Xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashining 2023-yil 6-

yanvardagi “Shayxontohur tumanining 2023-yil uchun mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-70-5-14-205-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

15. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

16. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Shayxontohur tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b (A.Kuchkarov) zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi o’rinbosari** **M.A.Adilov**

Xalq deputatlari Shayxontohur tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-88-207-14-205-K/23-son qaroriga
1-ilova

# 2024-yil uchun Shayxontohur tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

(ming so‘mda)

| T/R | Daromad turlari | Mablag‘ miqdori |
|---|---|---|
| **JAMI** | | **139 466 961,0** |
| 1 | Aylanmadan olinadigan soliq | 13 886 961,0 |
| 2 | Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 14 655 000,0 |
| 3 | Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i | 11 099 000,0 |
| 4 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 22 259 000,0 |
| 5 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 45 471 000,0 |
| 6 | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 6 456 000,0 |
| 7 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 18 641 000,0 |
| 8 | Davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar | 2 631 000,0 |
| 9 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno | 4 368 000,0 |

Xalq deputatlari Shayxontohur tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-88-207-14-205-K/23-son qaroriga
2-ilova

# 2024-yil uchun Shayxontohur tumanining tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

(ming so‘m)

| T/r | Ko‘rsatkichlar | Summa |
|---|---|---|
| **Xarajatlar miqdori, Jami** | | **139 466 961,0** |
| | **joriy xarajatlar** | 139 466 961,0 |
| 1 | **Maorif** | **51 416 457,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 51 416 457,0 |
| - | *maktabgacha ta’lim* | 25 961 818,0 |
| - | *umumiy ta’lim* | 25 454 639,0 |
| **2** | **Sog’liqni saqlash sohasi** | **3 814 553,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 3 814 553,0 |
| **3** | **Madaniyat sohasi** | **1 364 851,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 1 364 851,0 |
| **4** | **Jismoniy tarbiya va sport sohasi** | **3 930 673,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 3 930 673,0 |
| **5** | **Ozodlikdan mahrum etish jazosini o’tab bo’lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”** | **124 941,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 124 941,0 |
| **6** | **Ijtimoiy ko’nikma markazi** | **298 598,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 298 598,0 |
| **7** | **Iqtisodiy xarajatlar** | **28 250 244,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 28 250 244,0 |

| | | |
|---|---|---|
| - | **Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari** | **1 335 000,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 1 335 000,0 |
| - | **Obodonlashtirish sohasi** | **20 362 541,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 20 362 541,0 |
| - | **“Mahalla budjeti” jamg’armasi mablag’lari** | **6 552 703,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 6 552 703,0 |
| **8** | **Davlat boshqaruv organlarini saqlash** | **29 961 774,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 29 961 774,0 |
| **9** | **Zahira jamg’armasi** | **1 194 909,0** |
| | *joriy xarajatlar* | 1 194 909,0 |
| **10** | **Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi** | **19 109 961,0** |
| | joriy xarajatlar | 19 109 961,0 |

Xalq deputatlari Shayxontohur tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
II-88-207-14-205-K/23-son qaroriga
3-ilova

# Shayxontohur tuman byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

| T/R | Tuman nomi | Aylanmadan olinadigan soliq | Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Shayxontohur tumani | 18% | 44% | 10% | 11% | 100% |